KAFANSIZ KO‘MILGANLAR ASARIDA HARBIY SOHAGA OID UYADOSH SO‘ZLAR

Jozilova Dildora Sobir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: **Q.A.Mo‘ydinov,**

f.f.f.d.(PhD), dots.

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy soha tili leksikasidagi ot so‘z turkumiga oid so‘zlar Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asari misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: soha tili leksikasi, harbiy soha, uyadosh so‘zlar, terminologik leksika, advokat, avtomat, lager.

Abstract. This article analyzes nouns within the lexical system of military language based on Shukrullo’s work “Those Buried Without a Shroud.” Particular attention is paid to the functioning of lexical units belonging to the terminological system of the military sphere.

Keywords: special field vocabulary, military sphere, semantically related words, terminological vocabulary, advocate, automatic rifle, camp.

Аннотация. В настоящей статье на материале произведения Шукрулло «Похороненные без савана» проводится анализ слов, относящихся к имени существительному, в лексике языка военной сферы. Особое внимание уделяется особенностям функционирования лексических единиц, принадлежащих к терминологической системе военной области.

Ключевые слова: лексика языка специальной сферы, военная терминология, тематически связанные слова, терминологическая лексика, адвокат, автомат, лагерь.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida jamiyatning deyarli barcha sohalarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu jarayon tilshunoslik sohasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Endilikda til faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va innovatsion taraqqiyotning muhim omili sifatida qaralmoqda. Bizga ma’lumki, tilshunoslikning eng ko‘p o‘zgarishga uchraydigan sohasi leksikologiyadir. Leksikologiyani o‘rganishda tilshunos olimlarimiz tomonidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu nuqtayi nazardan ushbu sohada mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tilshunoslar zimmasiga sohaga oid til birliklari o‘rganish va soha atamalarini tizimlashtirish, shuningdek, maxsus lug‘atlarni tuzish bo‘yicha bir qator vazifalar yuklatildi. Biz bilamizki, har bir tilning lug‘at tarkibi, shuningdek, shu tildagi so‘zlar majmuiga leksika atamasi ishlatiladi. Shunga ko‘ra leksika so‘zi adabiy tilning lug‘at tarkibi ma’nosida ham, biror sheva yoki dialektning lug‘at tarkibini ifodalash uchun ham ma’lum bir kasb-hunar kabi sohaga oid lug‘at tarkibi ma’nosida ham (terminologik leksika), hatto ayrim yozuvchi asari yoki asarlarining so‘zlari majmuyi ma’nosida ham qo‘llaniladi. Harbiy sohadagi atamalarning ayrimlarini Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asari misolida ko‘rib chiqishga

harakat qildik. Asarda uchraydigan harbiy sohaga tegishli ot so‘z turkumiga oid ayrim uyadosh so‘zlarni tahlilga tortdik.

Ma’lumki, bir sathga mansub bo‘lgan, qiymat jihatidan bir xil til birliklarining ma’lum umumiy belgi asosida bir guruhga (uyaga) birlashuviga uyadoshlik munosabati deyiladi. Masalan, asarda uchraydigan **“polkovnik”, “kapitan”, “prokror”, “mirsab”, ”advokat”, “tergovchi”, “soqchi”, “soldat”** kabi so‘zlar ma’lum bir uyaga mansub shaxs otlaridir. Shaxs oti biror bir insonga shaxsga qaratilgan bo‘ladi.

Polkovnik — bir qancha davlatlar qurolli kuchlarida zobitlik unvoni. Polkovnik unvoni rus armiyasida XVII asrdan mavjud bo‘lgan.

Kapitan (lot. Capitaneus — lashkarboshi, lot. Caput — bosh so‘zidan) — 1) ko‘pchilik davlatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ofitserlik unvoni.

Prokor (lotincha: procurare — „g‘amxo‘rlik qilish“) — ayrim mamlakatlarda jinoiy ishlarni qo‘zg‘atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan mas’ul shaxs (organlar tizimi). **Mirshab** (arab, mir — hukmdor va shab — tun) — O‘rta Osiyo xonliklarida ma’muriy lavozim; tungi shahar soqchisi va ularning boshlig‘i. Uning zimmasiga shaharda tungi osoyishtalikni ta’minlash mas’uliyati yuklatilgan. O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan istilo qilingach, **mirshab** asosan, **tungi soqchilik** hamda tartib va institutizom bajarilishini ta’minlagan va politsiya vazifasini bajargan. **Mirshab mingboshi** va katta oqsoqollar ixtiyorida xizmatda bo‘lgan.

Advokat (lot. Advocatus, advocare — yordamga chaqirish) — yuridik yordam ko‘rsatuvchi shaxs. Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv, tergov harakatlari yuritilganda va sud majlisida, fuqaroviy ishlar sudda, xo‘jalik nizolari xo‘jalik sudlarida yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar sudya yoxud vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ko‘rilganda ishtirok etadi, qonunda belgilangan vakolatga ega bo‘ladi.

Leksemalarning o‘zlari bildirayotgan leksik ma’no asosida bir yerga to‘dalanishi, ularning o‘zaro hamda boshqa so‘zlar bilan ma’noviy munosabati masalasi azaldan tilshunos olimlarning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Masalan, H.Ne’matov va R.Rasulovlarning “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” nomli monografiyasida leksema, nomema, semema, leksik ma’no, leksemalarning mavzu to‘dalari, leksemalarning mazmun guruhlari haqida izchil, ilmiy ta’riflar berilgan; til birliklari o‘rtasidagi o‘xshashlik (paradigmatik), pog‘onali (ierarxik) va ketma-ketlik (sintagmatik) munosabatlarini ochishga harakatlar qilingan. Asarda nafaqat shaxs otlari balki narsa otlari ham shuningdek, o‘rin-joy otlari ham uchraydi. Narsa otlari miltiq, avtomat, o‘rin-joy otlari kamera, lager, turma, kaster va boshqalar.

“Avtomat” harbiy sohadagi qurollar nomi bo‘lib, avtomatik o‘qotar shaxsiy qo‘l quroli bo‘lib dushmanning jonli kuchini yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan. Ilk bor Rossiyada V.G.Fyodorov tomonidan 1916-yil ixtiro qilingan.

Miltiq — o‘q otish quroli. Ov va harbiy ishda qo‘llaniladi. Dastlabki M. XII asrda arablarda paydo bo‘lgan. Miltiq yog‘och dastaga mahkamlangan stvol (quvur)dan tuzilgan. O‘rin joy otlaridan: Kamera. 1) muayyan maqsadga xizmat qiladigan alohida xona, bino; 2) mashina, asbob ichidagi yopiq bo‘shliq (masalan dvigatelning yonish kamerasi); 3) havo bilan to‘latiladigan rezina qobiq (mina kamerasi). “Lager” esa shaxsiy tarkibga dala sharoitida ta’limot

berish maqsadida qism o‘quv markazida o‘tkaziladigan yig‘in. “**Turma**” qamoqxona ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalardan biri. Turmalarda mahkumlar alohida kameralarda saqlanadi. Toshturma ham xuddi shunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan jazoni ijro etuvchi joydir. **“Kartser”** ayrim davlatlarda belgilangan tartibni buzuvchilar uchun turmalarda, armiyada va o‘quv yurtlarida ajratilgan maxsus joy. Katser maxbuslari uchun ayniqsa judayam qattiq rejim o‘rnatilgan. “

Til birliklarining dialektik qonuniyatlar asosida bir yerga jamlanishi, alohida leksik-semantik guruhlarni tashkil qilishi hamda shu guruh ichidagi boshqa a’zolardan ma’lum bir belgilar asosida farqlanishi sabablari keng ko‘lamda tadqiq qilindi. Yuqorida keltirgan terminlarning barchasi ham to‘la holda izohlab o‘tilgani yo‘q, chunki terminlarning ba’zilari aniq tushunchani ifodalagani uchun ham aynan izoh talab qilinishiga ehtiyoj sezilgan terminlarni keltirib o‘tishni muvofiq deb topdik.

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida leksemalarni tushuncha asosida uyalarga bo‘lib o‘rganishda ancha yutuqlarga erishilgan. Tinchlik hukmron surayotgan mamlakatimizda yosh avlod uchun harbiy terminlar ishtirok etuvchi asarlarni o‘qish jarayonida atamalarning ma’nosi aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minlash maqsadida ushbu terminlarning ba’zilarini izohi bilan berilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Bundan tashqari ularni tadqiq etishda boshqa til hodisalari bilan taqqoslab o‘rganish hamda uyadosh so‘zlarning mukammal lug‘atini tuzish tilshunoslik sohasining dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zME.Birinchi jild. – Toshkent, 2000.

2. Yusupov Sh. Kafansiz ko‘milganlar. – Toshkent: Sharq, 2007.

3. Zokirov Sh.Z. Yuridik atamalar lug‘ati va ularning tarixi. – Toshkent, 2001.

4. Dolimov Sh.Z. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2007.

5.Begmatov, E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.

6. Internet ma’lumotlari.